



AJER
AKADEMIC JOURNAL OF
EDUCATIONAL RESEARCH

ISSUE 2

**AKADEMIC JOURNAL
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL**

MARCH 2024

WWW.AJERUZ.COM

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA TIZIMLILIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

*Abduraxmanova Nargiza Abdurashidovna, Abidova Dilbar Qobil Qizi,
Zakirova Feruza Tulkunovna, Alimkulova Nigoraxon Ilxomjon Qizi*

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Maxsus pedagogika: Logopediya yo'nalishi 4-
bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematika fanini o'qitishda tizimlilikning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Xususan, matematika fanini o'qitishga oid tajribalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, tafakkur, tizimlilik, maqsad, vazifa, o'quv fani, o'qituvchi, tajriba.

Abstract: The article emphasizes the importance of systematization in the development of students' thinking when teaching mathematics. In particular, the experience of teaching mathematics is described.

Key words: education, upbringing, thinking, systematization, villages, task, subject, teacher, experience.

Bugungi kunda zamonaviy uzuluksiz ta'lim oldiga ta'lim va tarbiya sifatini oshirish, fan asoslarini puxta o'qitishning yuqori ilmiy darajasini ta'minlash vazifasi qo'yilgan. Ushbu vazifa o'qitish usullarini takomillashtirish orqali o'quvchilarning fanlarga oid bilimlarini rivojlantirishni hamda o'zlashtirgan bilimlarni amaliyotda samarali qo'llash ko'nikmalarini intensiv shakllantirishni ko'zda tutadi. Har qanday pedagogik jarayon ta'lim oluvchining shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlari ko'lami darajasida tashkil etilsagina, u sifatli ta'lim mezonlariga asoslangan hisoblanadi. Sifatli ta'lim mezonlari umumiy o'rta ta'limga qanchalik xos bo'lsa, to'liq ma'noda inklyuziv ta'limga ham dahldordir.

Bugungi kunda aksariyat umumta'lim maktablarida rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarning mavjudligi sir emas. Bu kabi bolalar bilan individual ishlash fidoiy o'qituvchilar zimmasiga yuklanib kelinmoqda. Shu bois 2024-2025- o'quv yilida rejalashtirilayotgan inklyuziv sinflarining ochilishiga oid ma'lumotlar biz o'qituvchilarning amaliyotda erishgan yutuqlarimizni ommalashtirishga ehtiyojni yuzaga keltirdi. Quyida o'quvchilarga matematikani o'qitishga oid metodik ko'rsatmalar sanab o'tiladi.

Bizning amaliyotimizda turli toifadagi o'quvchilarning matematik faoliyati bolalar tomonidan tabiiy va ijtimoiy olam manzarasini faol, avvaldan xohlab, ongli o'zlashtirish yo'li bilan matematik tajribani shakllantirish va o'zgartirishga qaratilgan faoliyat sifatida ko'rib chiqiladi. Ishda o'quvchilarning bu faoliyati predmetli-amaliy, o'yin, mehnat, nutqiy faoliyatga, shuningdek o'quv faoliyatiga asoslanadi. Matematik materialdan foydalanishga asoslangan faoliyat, boshqa predmetlarga asoslangan materialga nisbatan,

noma'lumning va olingan natijaning ko'proq darajada aniqligi bilan ajralib turishi tajriba asosida isbotlangan.

L.S.Vigotskiy ta'kidlaganidek, maktabgacha yoshdagi bola uchun fikrlash ko'rinib turgan aloqalarni anglash demakdir, maktab o'quvchisi uchun esa bu o'z tasavvurlarini anglashdir. Matematik rivojlanish davomida, nafaqat muayyan tasavvurlar va tushunchalar shakllanadi, balki ramziy (simvolik) strukturalar ham shakllanadi. Shuning uchun aqliy rivojlanish jarayoniga nisbatan yondashuvlarni aniqlashtirib, uning bosh yo'nalishlarini ajratib olish g'oyat muhim. Tajribamiz davomida bolalarning aqliy rivojlanishiga oid turli nazariyalar va tadqiqot dasturlarini o'rganib chiqdik va bu bizga mazkur psixologik-pedagogik hodisani zamonaviy yondashuvlar nuqtai nazaridan anglash, boshlang'ich sinflarda turli imkoniyatli o'quvchilarga matematika o'qitish yo'llarini aniqlab olish imkonini berdi. Matematikani o'qitish jarayonida vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi masala shartiga kiritilgan barcha holatlarni hisobga olish zarurligi bilan bog'liq. Bilish faoliyati bolalarning matematik ta'limida yetakchi o'rin tutadi. Bunda ta'lim va bilish jarayonlari o'zaro ajralmas ekanligiga e'tibor qaratish lozim. Bilish faoliyati predmetli faoliyatdan natijasining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, ya'ni bunda ob'ekt, uning xususiyatlari, uning asl borlig'i, mohiyati (ob'ektning o'zi o'zgarmagan holda) o'z aksini topadi. Ilmiy bilishda ob'ekt modifikatsiyasi ob'ektning muhim xususiyatlarini anglashning asosiy shartidir. Bu jarayon bilim olishning o'z vositalariga ega bo'lgan predmetli-bilish faoliyatida amalga oshiriladi. Yangi bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyoj bunday faoliyatga turtki beruvchi motiv vazifasini o'taydi. Yangi bilimlarni olishga bo'lgan ehtiyoj esa boshqa faoliyat (mehnat, o'yin va h.k.) ehtiyojlari evaziga rag'batlantiriladi. Bilish faoliyati komponentlarining shakllanishini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarda bilish motivi va bilish jarayonining yo'nalganligi predmetli faoliyat ehtiyojlariga bog'liq bo'lsa, katta yoshdagi o'quvchilarda bilish faoliyati mustaqil maqsad qo'yish jarayoni sifatida ajralib chiqadi.

Shunday qilib, biz nogironligi bo'lgan bolalar rivojlanishining senzitiv davrida matematika ta'limi naqadar katta va alohida o'rin tutadi deb hisoblaymiz. Bolaning matematika ibtidolari to'g'risidagi tasavvurlari uning atrof muhit bilan, kattalar va tengdoshlari bilan o'zaro muloqoti jarayonida oladigan tizimli bilimlari asosida shakllanadi. Tajribamiz jarayonida biz "bola bilimlarining tizimli" tushunchasiga tayanamiz hamda uni tuzilishi nazariy bilimlar tuzilishiga o'xshash bo'lgan bilimlar majmui sifatida olib qaraymiz. Tizimli bilimlar bolalarning matematik tajribasida turli funksiyalarni bajarishi mumkin. Ushbu vazifalarni o'qitishning vazifalariga bog'lash mumkin:

- 1) tafakkurning tizimlili va izchilligi;
- 2) fikrlashning aniqligi;
- 3) o'zlashtirilgan matematik bilimlar va hayot hodisalari o'rtasida aloqa o'rnatish;
- 4) sonlarni eslab qolish, xotira.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eng muhimi o'qituvchilar har bir bolani sevishi, uning imkoniyatlarini payqashi va albatta, manbalarni o'rgangan holda inklyuziv muhitda darslarni samarali tashkil etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pulatova, D. A. (2022). The use of ict in classes on the development of audio perception and formation of pronunciation in children with hearing impairments. Ijodkor o'qituvchi, 2(19), 441-445.
2. Pulatova, D. A. Eshitishda nuqsoni bo 'lgan bolalarning o'quv faoliyatiga motivatsiyasini oshirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish. Экономика, 514-517.
3. Usmanovna, Q. F., Azamkulovna, P. D., & Maxkamovna, M. D. (2022). Inklyuziv ta'limda kadrlar masalasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(14), 834-842.
4. Azamkulovna, P. D. (2022). Bo'lajak o'qituvchi-defektologlarga ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borishni o'rgatish kasbiy faoliyatga tayyorgarlik ko 'rish omili sifatida. Scientific Impulse, 1(5), 413-418.
5. Pulatova, D., & Boboxonova, M. (2023). Aktdan foydalanish jarayonida o'qituvchi imkoniyatlarini maktab o'quvchilari, talabalar va o'qituvchilarni axborot bilan ta'minlash. Академические исследования в современной науке, 2(12), 78-86.
6. Pulatova, D. ., To'raqulova, D. ., Mammadiyeva, D. ., & Abduvaxobova, N. . (2023). Inklyuziv ta'limning terminologik asoslari. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 60–62. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/yota/article/view/13970>
7. Pulatova, D., To'raqulova, D. ., Najmiddinova, N. ., & Ikromova, F. . (2023). Inklyuziv ta'limda aktdan foydalanish. Бюллетень студентов нового Узбекистана, 1(5), 84–86. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/view/14040>
8. Pulatova, D., To'raqulova, D. ., Saydalova, B. ., & Zuhridinova, D. . (2023). Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarni saralash. Наука и инновация, 1(6), 80–82. извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/14418>
9. Azamkulovna, P. D. (2023). Tendencies of organizing integrated education in higher education. Science and Innovation, 2(5), 237-243.



AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)
international scientific journal
2-son

Nashr qilingan sana: 25.03.2024.
Shrift: "Times New Roman".

“ACADEMIC JOURNAL” MCHJ

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog‘iston ko‘chasi, 116/6.
www.ajeruz.com, info@ajeruz.com, +998950457172